

**BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MARKAZLASHMAGAN
DASTURIY MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQISH BO'YICHA
HAKATONNI O'TKAZISH BO'YICHA NIZOM**

Toshkent – 2025

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Ushbu Nizom blockchain texnologiyasidan foydalangan holda innovatsion dasturiy echimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan hakatonni o‘tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi.
- 1.2. Hakatonning asosiy sharti – blockchain texnologiyasidan foydalangan holda markazlashmagan dasturiy mahsulot yaratish.
- 1.3. Hakatonning aniq yo‘nalishlari va vazifalari tadbir o‘tkazilgan kuni e’lon qilinadi.
- 1.4. Hakaton tashkilotchisi – "**Yagona integrator – UZINFOCOM**" MChJ, hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

2. ASOSIY ATAMALAR VA TA’RIFLAR

- 2.1. **Hakaton** – dasturchilar jamoalari belgilangan vaqt ichida dasturiy echimlar yaratadigan maxsus tadbir.
- 2.2. **Blockchain (taqsimlangan reyestr)** – ma’lumotlar maxsus bloklarga taqsimlangan texnologiya bo‘lib, har bir yangi blok avvalgi blok bilan kriptografik imzo orqali bog‘langan.
- 2.3. **Smart-kontrakt** – elektron shakldagi shartnoma bo‘lib, uning bajarilishi raqamli tranzaksiyalarni avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshirish orqali ta’milnadi.
- 2.4. **DApp (markazlashmagan ilova)** – blockchain texnologiyasiga asoslangan, markazlashmagan boshqaruvga ega dasturiy mahsulot.
- 2.5. **Hakimlar hay’ati** – hakaton doirasida loyihalarni baholovchi mutaxassislardan iborat organ bo‘lib, tashkilotchilar va mustaqil ekspertlar tarkibidan tuziladi. Ekspert hay’ati tarkibi hakaton tashabbuskorি tomonidan tasdiqlanadi.
- 2.6. **Mentorlar** – hakaton ishtirokchilariga maslahat va yo‘riqnomalar beruvchi mutaxassislar.
- 2.7. **Tashkilotchi – "Yagona integrator – UZINFOCOM" MChJ.**
- 2.8. **Ishtirokchi** – hakatonda qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tgan va tadbir doirasida belgilangan vazifalarni bajarayotgan jismoniy shaxs yoki jamoa.
- 2.9. **G‘olib** – hakamlar hay’ati tomonidan tasdiqlangan mezonlar bo‘yicha eng yuqori ball olgan jamoa yoki ishtirokchi.

3. MAQSADLAR VA VAZIFALAR

- 3.1. Hakatonning asosiy maqsadi – markazlashmagan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishni rag‘batlantirish, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va turli iqtisodiy sohalarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan texnologik jihatdan asoslangan echimlarni yaratish.
- 3.2. Hakatonning asosiy vazifasi – blockchain texnologiyasidan foydalangan holda markazlashmagan dasturiy mahsulot yaratish.

4. SANA VA JOY

- 4.1. Hakaton 2025-yil 27-apreldan (13:00-19:00) 28-aprelgacha (09:00-17:30) bo‘lib o‘tadi. Tadbir o‘tkazilish joyi: O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi binosi, Toshkent shahri, Ibrohim Muminov ko‘chasi, 4.
- 4.2. Hakaton g‘oliblarini taqdirlash marosimi 28-aprel 2025-yil kuni O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi binosining Kongress zalida bo‘lib o‘tadi. Manzil: Toshkent shahri, Ibrohim Muminov ko‘chasi, 4.

5. RO‘YXATDAN O‘TISH VA SARALASH

- 5.1. Ishtirokchilarni ro‘yxatga olish 2025-yil 1-martdan 20-aprelgacha Token.uz platformasidagi rasmiy sahifa amalga oshiriladi.
- 5.2. Hakatonda faqat O‘zbekiston fuqarolari ishtirok etishi mumkin. Ishtirokchilar jismoniy shaxs yoki jamoa (maksimal 5 kishi) shaklida ro‘yxatdan o‘tishi mumkin.
- 5.3. Ishtirokchilar hakaton reglamentiga hamda ishlab chiqilgan loyihalar uchun belgilangan texnik talablar va qoidalarga rioya qilishlari shart.
- 5.4. Hakaton uch bosqichdan iborat:
 - Tayyorlov bosqichi
 - Asosiy bosqich
 - Final bosqichi
- 5.5. Final bosqichida qatnashish uchun jamoalar quyidagi mezonlar asosida saralanadi:
 - Ilgari o‘tkazilgan hakatonlarda ishtirok etgan tajribasi;
 - Blockchain texnologiyalari sohasida dasturiy mahsulot ishlab chiqish tajribasi.
- 5.6. Hakatonning asosiy bosqichida qatnashish huquqini qo‘lga kiritgan jamoalar haqida tashkilotchi hakaton boshlanishidan 10 kun oldin xabar beradi.
- 5.7. Tashkilotchi saralash natijalariga izoh berish yoki apellyatsiyalarni ko‘rib chiqish majburiyatiga ega emas.
- 5.8. Final bosqichiga faqat 7 ta jamoa saralanadi.

6. HAKATON BOSQICHLARI

6.1. Tayyorlov bosqichi:

- **Token.uz** platformasida hakaton sahifasini yaratish;
- Ijtimoiy tarmoqlarda va professional hamjamiyatlarda targ‘ibot ishlari;
- Ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish;
- Jamoalarни saralash va final bosqichiga yo‘llash.

6.2. Asosiy bosqich:

- Hakaton shartlari va vazifalarining rasmiy e’lon qilinishi;
- Ekspert hay’ati a’zolari bilan tanishuv;
- Belgilangan muddat ichida dasturiy echimlarni ishlab chiqish;
- Mentorlar va hakamlar hay’ati tomonidan maslahat berish.

6.3. Final bosqichi:

- Ishlab chiqilgan echimlarni taqdimot qilish;
- Hakamlar hay’ati tomonidan loyihalarni baholash;
- G‘oliblarni e’lon qilish va mukofotlarni topshirish.

7. MUKOFOT JAMG‘ARMASI

7.1. Umumiy mukofot jamg‘armasi – 100 000 000 so‘m.

7.2. Mukofotlar quyidagicha taqsimlanadi:

- **1-o‘rin – 50 000 000 so‘m**
- **2-o‘rin – 30 000 000 so‘m**
- **3-o‘rin – 20 000 000 so‘m**

7.3. Pul mukofotlari g‘olib jamoalar ishtirokchilari o‘rtasida teng taqsimlanadi va **final sanasidan boshlab 60 kun ichida** tashkilotchi tomonidan to‘lanadi.

7.4. Agar tashkilotchi g‘olib jamoaning loyihasini kelgusida rivojlantirishga qiziqish bildirsa, jamoaga sheriklik doirasida qo‘srimcha qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatilishi mumkin.

8. EKSPERT HAY’ATI TARKIBI

8.1. Ekspert hay’ati hakaton tashkilotchilar, hamkorlar, homiyalar va hakaton tashabbuskori bilan kelishilgan boshqa shaxslardan iborat bo‘ladi.

8.2. Ekspert hay’atining shaxsiy tarkibi **1-ilovada** keltirilgan.

9. BAHOLASH MEZONLARI

9.1. Taqdim etilgan loyihalar quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:

- **Texnik ijro sifati:** kod sifati, smart-kontraktlardan foydalanish, blockchain tarmoqlari bilan integratsiya – **10 ball**;
- **Innovatsionlik:** loyiha qanchalik o‘ziga xos? – **5 ball**;
- **Ijtimoiy ahamiyat va amaliy foyda:** loyiha real muammolarni hal qiladimi? – **5 ball**;
- **Huquqiy muvofiqlik:** loyiha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro huquq va standartlarga mos kelishi – **5 ball**;
- **Biznes modeli:** loyiha ishlab chiqish va boshqarish samaradorligi, hamda keltirishi mumkin bo‘lgan moliyaviy foyda – **5 ball**.

9.2. Loyihalarning yakuniy bahosi jami to‘plangan ballar asosida ekspert hay’ati tomonidan belgilanadi.

9.3. Ishtirokchilar o‘z kodlarini ekspert hay’ati tomonidan tekshirish uchun tashkilotchi tomonidan taqdim etilgan Git repozitoriyidan foydalanishlari shart.

10. TEXNIK TA’MINOT

10.1. Tashkilotchi ishtirokchilarga ish uchun zarur uskunalarni taqdim etmaydi. Ishtirokchilar o‘z shaxsiy kompyuterlari va boshqa zarur qurilmalarni o‘zlari olib kelishlari lozim.

10.2. Tashkilotchilar hakaton davomida ishtirokchilarga bepul internet ulanishi imkoniyatini ta'minlaydi.

10.3. Ishtirokchilar dasturiy yechimlar ishlab chiqish samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishlari mumkin.

11. LOYIHALAR HUQUQLARI

11.1. Tashkilotchi taqdim etilgan loyihalarni texnologik tashabbuslarni rivojlantirish maqsadida foydalanish huquqini o'zida saqlab qoladi.

12. YO'NALISHLAR BO'YICHA MAXFIY QOIDA

12.1. Xakaton yo'naliishlari bo'yicha ma'lumotlar 1-ilovada keltirilgan bo'lib, ular hakatonning boshlanish kuni e'lon qilinadi.

13. ALOQA MA'LUMOTLARI

13.1. Hakaton o'tkazilishiga oid barcha savollar **Token.uz platformasi**idagi tadbir veb-sahifasi orqali yuborilishi mumkin.

14. YAKUNIY QOIDALAR

14.1. Tashkilotchilar ushbu Nizomga o'zgartirish kiritish huquqiga ega bo'lib, bu haqda ishtirokchilarga oldindan xabar beriladi.

14.2. Hakatonda ro'yxatdan o'tish va ishtirok etish ushbu Nizom shartlariga to'liq rozilikni anglatadi.